

**Narziyeva Hafiza Narimonovna**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

3-o'quv kursi 316-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tovlamachilik jinoyati uning o'ziga xos xususiyatlari mazmuni mohiyati tovlamachilik jinoyatining tushunchasi kriminogen holatga ta'siri aholi o'rtaida oldini olish usullari oldini olish chora-tadbirlari hamda tovlamachilik jinoyatining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobjiy natijasi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tovlamachilik jinoyati ,huquqbazarlik,tovlamachiliidan jabrlangan shaxs, qonuniy javobgarlik, islohotlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие вымогательство, понятие вымогательство, его специфические особенности, история вымогательство, причины возникновения этого преступления сегодня, виды вымогательство и меры, принимаемые для его предотвращения.

**Ключевые слова:** описаны преступления, юридическая ответственность, реформы, меры по предупреждению преступления вымогательства, значение, содержание и актуальность.

**Abstract:** This article discusses the concept of extortion, the concept of extortion, its specific features, the history of extortion, the causes of this crime today, the types of extortion and the measures taken to prevent it.

**Key words:** offense, crime, extortion, law enforcement, victim of extortion, importance, value.

*Qonun ustuvorligi taraqqiyot garovidir.*

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı tizimli va xalqchil islohotlar zamirida birinchi navbatda inson manfaatlarini himoya qilish, uning huquq va erkinliklarini qonuniy va adolatli ta'minlash asosiy vazifa sifatida amalga oshirilib kelinmoqda.

Qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy omili bu huquqbazarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish va huquqbazarliklarning sabablari bilan kurashish emas,balki unga olib keluvchi shart-sharoitlar,omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishdan iboratdir.Shu munosabat bilan huquqbazarliklar profilaktikasining asosiy subyektlari hisoblangan ichki ishlar organlarining profilaktika faoliyatini chuqr o'rganish va uni yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir<sup>2</sup>. Hududlarda sodir etilayotgan jinoyatlardan biri bo'lgan mulkiy turdag'i tovlamachilik jinoyati haqida to'xtalib o'tishimiz lozim.Tovlamachilik jinoyatining firibgarlikdan qanday farqli jihatlari bor tushunib olishimiz shart. Ushbu jinoyat o'zining sodir etilish

<sup>2</sup> Aliyev Shuhrat Xasanovich –Buxoro viloyati IIB boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd).Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar; b-24.

Date: 17<sup>th</sup> November-2024



usuli, obyekti hamda obyektiv tomonlari va shaxsning motiv va maqsadlari bilan ajralib turadi quyida shu haqida so'z boradi. Avvalo, tovlamachilik jinoyatiga ta'rif berib o'tishimiz lozim:

“ Tovlamachilik- ya’ni jabrlanuvchiga yoki uning yaqin kishilariga zo’rlik ishlatish, mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchining axborot resursini yo‘q qilish, o‘zgartirish, egallab olish yoki to‘sib qo‘yish yoki jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish, uni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish bilan qo‘rqitib o‘zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o‘zining mulkini yoki mulkka bo‘lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo‘yish “.<sup>3</sup>

Tovlamachilikning jinoiy huquqiy jihatlaini tahlil qilish, albatta, mamlakatimiz milliy-huquqiy manbalaridagi ushbu jinoyatning nazariy-huquqiy tushunchasiga , tarkibiga , elementlariga , shuningdek, boshqa turdagи o’xshash jinoyatlardan xususan firibgarlik farqli tomonlariga oid masalalarini tadqiq qilishni taqozo etadi.

Tahlillar jinoyat kodeksining 165-moddasidagi “Tovlamachilik” jinoyatiga oid tushuncha bu boradagi tushunchalar mazmunini to’liq o’z ichiga qamrab olmaganligini ko’rsatmoqda. Chunki o’zbek tilining izohli lug’atida a) tovlamachi kishilarni tovlab, laqillatib, qo‘rqitib kun ko’rvuchi firibgar; b) toviamoq aldab laqillatib, qo‘rqitib, biror narsani yoki pulini olmoq, yulmoq, anoyi qilmoq, firib bermoq degan ma’nolarda keladi.

Ta’kidlash joizki tovlamachilikka nisbatan firibgarlikning ko’rsatkichlari ham bir muncha yuqori hisoblanadi. Firibgarlik jinoyatining sodir etish usullari tovlamachilikdan farq qiladi. Aldash yoki ishonchini suiste’mol qilish yo’li bilan o’zganing mulkini yoki mulkiga bo‘lgan huquqni qo’lga kiritish haqida gapirliganda ,eng avvalo, uning mazmunini tashkil etuvchi – “firibgarlik” atamasi bilan bog’liq bo‘lgan ayrim tushunchalarni ham tahlil qilish zarur. Tahlilar shuni ko’rsatmoqdaki firibgarlik jinoyatini sodir etishda jinoyatchilar tomonidan qo’llaniladigan yagona usul mavjud emas, balki ular o’z faoliyatlarida bir qator motiv va maqsad bilan bog’liq asosan ishonchni suiste’mol qilish bilan bog’liq usullarni qo’llashga harakat qilishadi. Shuningdek,firibgarlikning sodir etish usullarini o’rganish ham huquqni muhofaza qiluvchi organlarda unga qarshi kurashish uchun zarur bo‘lgan mexanizmlarni yaratish va harakatga keltirish orqali fuqarolarni ogohlilikka chaqirish hamda hushyorligini oshirish uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Bugungi kunda ushbu jinoyatning farqli jihatlari borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, huquqshunos X.R.Ochilov tadqiqotlarida rivojlangan xorijiy mamlakatlar ( GR,Ispaniya, Daniya, Avstriya, Xitoy, Shvetsiya , Gollandiya, va boshqalar)ning ushbu turdagи talon-tarojlarga qarshi qonun yo’li bilan kurashish borasidagi tajribasi diqqatiga sazovorligi ta’kidlanadi. U tomonidan mol-mulk yoki unga bo‘lgan huquqni talon-taroj qilishning turli usullari uchun javobgarlik nazarda tutilgan alohida

<sup>3</sup> O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi-T: 165-modda.

Date: 17<sup>th</sup> November-2024



normalar mavjudligini e'tirof etilgan.Jinoyat uchun jazo tayinlashda uni sodir etish usul va shakllarini ham inobatga olish qanchalik tarbiyaviy ahamiyatga egaligi munozarali holatdir.

Mazkur qilmishlarning bir – biriga o'xshashligi : a) tovlamachilik va firibgarlik iqtisodiy sohasidagi jinoyatlar turkumiga kiruvchi jinoyat hisoblanadi; b) o'zgalarni aldash va ishonchiga kirish orqali sodir etiladi; v) qilmishning bevosita o'zgalar mulkini talontaroj qilishga qaratilganligida namoyon bo'ladi. Ushbu qilmishlarning bir-biridan farqi : a) tovlamachilik zo'rlik ishlatish va qo'rqtish usullaridan birini yoki bir vaqtida har ikkisini ham qo'llagan holda mulkiy manfaat olish yoki shunday manfaatni berishga majbur qilish orqali sodir etiladi ;

b) firibgarlik aldov yoki ishonchni suiste'mol qilish usullaridan birini yoki bir vaqtida har ikkisini ham qo'llagan holda mulkni yoki unga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish orqali sodir etiladi.<sup>4</sup>

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tovlamachilik hamda firibgarlik jinoyatlarini bir – biridan farqlarini to'liq anglab va tushunib olish ushbu jinoyatlarni oldini olishda va ularning sodir bo'lish sabab va shart-sharoitlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hududda kriminogen vaziyatni murakkablashuvini oldini oladi, huquqbazarliklar profilaktikasining chora-tadbirlarini aniqlab va o'z vaqtida aniqlashga ko'mak beradi. Ushbu jinoyatning kvalifikatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T: (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.). <https://lex.uz/docs/6445145> .. Murojaat vaqt : 21.10.2024-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. <https://lex.u/docs/111453> Murojaat vaqt : 21.10.2024-yil Murojaat vaqt : 21.10.2024-yil.
- 3.Irisbekov Ulug'bek Askarovich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.Firibgarlikning tovlamachilikdan farqli jihatatlari tahlili ; 214,215,216-b. Murojaat vaqt : 21.10.2024-yil.
4. Aliyev Shuhrat Xasanovich –Buxoro viloyati IIB boshlig'I, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd).Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar; b-24. Murojaat vaqt : 21.10.2024-yil.
5. O'zbek tili izohli lug'ati // [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi Murojaat vaqt : 21.10.2024-yil.
- 6.O'zbek tilining izohli lug'ati: 8000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi.J.V.-T: " O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. B.348. Murojaat vaqt : 21.10.2024-yil.

<sup>4</sup> Irisbekov Ulug'bek Askarovich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.Firibgarlikning tovlamachilikdan farqli jihatatlari tahlili ; 214,215,216-b.